

XORAZM VILOYATINING CHAKANA TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-iyun)


Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 3138,6 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 12,9% ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 737,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 52,4%), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 2131,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 5,0%), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 269,9 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,2% ga oshgan) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana tovar aylanmasi hajmi hamda o'sish sur'atlari

	Jami (mlrd. so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Yirik korxonalar (mlrd. so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	3138,6	112,9	737,6	152,4
<i>shaharlar:</i>				
Urganch	1205,4	120,3	604,6	143,9
Xiva	109,6	100,8	5,3	40,0
<i>tumanlar:</i>				
Bog'ot	134,5	113,4	12,5	6,1 m.
Gurlan	206,8	104,4	4,3	133,5
Qo'shko'pir	121,8	101,6	1,8	28,6
Urganch	300,4	111,4	35,0	2,6 m.
Xazorasp	345,7	104,6	9,4	66,1
Xonqa	224,5	126,8	42,8	14,2 m.
Xiva	87,2	112,8	8,3	12,9 m.


Shovot	165,0	107,2	9,1	176,4
Yangiariq	169,3	106,7	4,2	2,0 m.
Yangibozor	68,3	104,0	0,3	100,4

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so`m)



2019 yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o`shish sur`atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o`shish sur`atlari Urganch shahri, Xonqa, Bog'ot va Xiva tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o`rish sur`atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 52,4% ga o'sdi va 737,6 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 23,5% ulushiga to'g'ri keladi.


Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 2401,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 4,6% ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 76,5% ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)

2018 YIL
YANVAR-IYUN




2019 YIL
YANVAR-IYUN



■ Yirik korxonalar
■ Kichik tadbirkorlik

Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Yangibozor (99,6%), Qo'shko'pir (98,5%), Gurlan (97,9%) va Yangiariq (97,5%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 23,5% ni tashkil etib, eng katta ulush Urganch shahri (50,2%), Xonqa (19,1%) va Urganch (11,6%) tumanlarida kuzatilgan.

Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi

	Yirik korxonalar (mlrd so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik tadbirkorlik (mlrd so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	737,6	152,4	2401,0	104,6
<i>shaharlar:</i>				
Urganch	604,6	143,9	600,8	103,2
Xiva	5,3	40,0	104,3	109,3
<i>tumanlar:</i>				
Bog`ot	12,5	6,1 m.	122,0	104,7
Gurlan	4,3	133,5	202,4	103,9
Qo`shko`pir	1,8	28,6	120,0	105,6
Urganch	35,0	2,6 m.	265,4	103,7
Xazorasp	9,4	66,1	336,3	106,4
Xonqa	42,8	14,2 m.	181,7	104,4
Xiva	8,3	12,9 m.	78,9	103,0
Shovot	9,1	176,4	156,0	104,8
Yangiariq	4,2	2,0 m.	165,1	105,4
Yangibozor	0,3	100,4	68,0	104,0

Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)



2019 yil yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 1704,7 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 11,0% ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-iyun oylarida o'tgan yilga nisbatan viloyatimizning barcha hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkichlar Urganch shahri (8482,8 ming so'm), Urganch (1542,7 ming so'm) va Yangiariq (1485,5 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Xiva (610,5 ming so'm), Qo'shko'pir (720,5 ming so'm) va Yangibozor (795,4 ming so'm) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
--	-----------	---

Xorazm viloyati	1704,7	111,0
-----------------	--------	-------

shaharlar:

Urganch	8482,8	119,0
---------	--------	-------

Xiva	1206,2	99,3
------	--------	------

tumanlar:

Bog`ot	833,3	111,5
--------	-------	-------

Gurlan	1417,2	102,7
--------	--------	-------

Qo`shko`pir	720,5	99,7
-------------	-------	------

Urganch	1542,7	109,3
---------	--------	-------

Xazorasp	1415,2	102,8
----------	--------	-------

Xonqa	1225,6	124,7
-------	--------	-------

Xiva	610,5	110,7
------	-------	-------

Shovot	988,7	105,3
--------	-------	-------

Yangiariq	1485,5	105,0
-----------	--------	-------

Yangibozor	795,4	102,3
------------	-------	-------

Jumladan, 2019 yilning yanvar-iyun oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,4% ni tashkil etib, 45,1 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 5,3% o`shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 95,9% ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.


ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-iyun)

Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 967,5 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 17,2% ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub'ektlari hajmi 2019 yil yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra 557,1 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,6% ga oshgan. Ushbu sektorining umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 57,6% ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa tumanlar bilan taqqoslaganda, Bog'ot, Yangiariq va Yangibozor tumanlarida (100,0%) yuqori bo'lgan.

**Yirik va kichik korxonalar
ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasi ulushi 42,4% ni tashkil etdi, yirik korxonalarda eng yuqori ulush Urganch tumanida (69,3%) va Urganch shahrida (34,4%) kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Yirik korxonalar (mlrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik korxonalar (mlrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
Xorazm viloyati	967,5	117,2	410,4	135,3	557,1	106,6
<i>shaharlar:</i>						
Urganch	323,6	100,3	111,4	90,7	212,2	106,2
Xiva	33,0	101,3	0,3	135,7	32,7	101,0
<i>tumanlar:</i>						
Bog`ot	13,0	107,1	0,003	1,5	13,0	108,9
Gurlan	15,1	105,3	0,014	9,7	15,1	106,3
Qo`shko`pir	2,4	102,6	0,012	7,6	2,3	109,8
Urganch	428,3	140,0	296,7	166,8	131,5	102,7
Xazorasp	16,2	104,4	0,010	1,2	16,2	110,1
Xonqa	45,8	113,1	1,4	5,0 m.	44,4	110,5
Xiva	19,0	112,8	0,5	2,5 m.	18,5	111,1
Shovot	21,2	110,6	0,01	26,9	21,1	112,1
Yangiariq	15,6	112,6	0,01	3,7	15,6	114,1
Yangibozor	34,4	114,6	0,003	1,7	34,4	115,3

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining o'zgarish sur'atlari, (%)



Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atlari Urganch tumani (140,0%) va Yangibozor tumani (114,6%) da qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi
bo'limi
Tel.:62-224-65-09